

“MINTAQА INFRATUZILMASINI YAXSHILASHDA OZIQ-OVQAT SANOATINI AHAMIYATI”.

Sattarova Dinora Jumanazarovna

Qo'shko'pir kasbiy ko'nikmalar markazi, kasbga o'qitish, ishga joylashish marketingi va monitoringi bo'yicha o'rinnbosari.

Annotatsiya: Ushbu maqolada mintaqasi infratuzilmasini yaxshilashda oziq-ovqat sanoatining ahamiyati yoritib berilgan. Oziq-ovqat sanoati har qanday mamlakatning asosiy tarmog'i hisoblanadi va bu sohani qo'llab quvvatlash, modernizatsiya qilishni talab qiladi. Shu sababli mintaqasi infratuzilmasining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar keltirilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat sanoati, infratuzilma, oziq-ovqat xavfsizligi.

Abstract: This article highlights the importance of the food industry in improving the infrastructure of the region. The food industry is a key sector of any country and requires support and modernization of this sector. Therefore, the main factors influencing the development of the infrastructure of the region are presented.

Key words: food industry, infrastructure, food safety

Абстракт: В статье подчеркивается важность пищевой промышленности в улучшении инфраструктуры региона. Пищевая промышленность является ключевой отраслью любой страны, и эта отрасль требует поддержки и модернизации. Таким образом, представлены основные факторы, влияющие на развитие инфраструктуры региона.

Ключевые слова: пищевая промышленность, инфраструктура, безопасность пищевых продуктов.

Kirish. Iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismlaridan biri oziq-ovqat sanoati, butun dunyo bo'ylab iste'molchilarни ish joylari va zarur mahsulotlar bilan ta'minlaydi. Bu tarmoq oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, turli va sifatli oziq-ovqat mahsulotlariga ortib borayotgan talabni qondirishda muhim ahmiyatga ega. Oziq-ovqat sanoati milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim rol o'yndaydi. U qishloq xo'jaligi, texnologiya, transport va savdo kabi sohalarga ta'sir ko'rsatib, mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga, ish o'rirlari yaratishga va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli, ushbu sohani qo'llab-quvvatlash va modernizatsiya qilish iqtisodiy o'sishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bu tarmoq nafaqat oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, balki transport, savdo, xizmat ko'rsatish va texnologik innovatsiyalar bilan bog'liq boshqa sohalarning rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Mintaqasi infratuzilmasining rivojlanishi ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, iqtisodiy, transport, texnologik, ijtimoiy, ekologik va boshqaruv omillari eng muhimlari hisoblanadi. Har bir hududning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda infratuzilma loyihibalarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur. Sifatli infratuzilma mintaqaning jadal rivojlanishiga, investitsiyalar jalb qilinishiga va aholining farovonligiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Asosiy qism. Oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlashda, bu sohani rivojlantirishda klaster tarmoqlarning roli, innovatsion yondoshuvlar asosida ishlab chiqilishini dolzarb qilib qo'yadi. Va yana shuni hisobga olish kerakki, jahon tajribasini qo'llagan holda

bu sohani rivojlanishi ham katta ahamiyat kasb qiladi. Bu borada ko`plab olimlar o`z ilmiy izlanishlarida bu jihatlariga e`tiborlarini qaratishgan. Jumladan xorijlik iqtisodchi olimlar A. Marshal, M. Porter, M. Droke, D. Souler, E. Dahmen, T. Gammalar tomonidan oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash zanjirida integratsi-yalashuv jarayonlarini rivojlantirish, jumladan iqtisodiyot tarmoqlarini klaster va kooperatsiya yondashuvi asosida rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy va metodologik asoslariga qaratilgan masalalar ularning ilmiy tadqiqot ishlarida o`rganib chiqilgan. Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha xorijiy davlatlarda to'plangan ilg'or tajribadan kelib chiqib, mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini samarali va ishonchli ta'minlash masalalarini o`rganish maqsadida quyidagi ko'zda tutilgan:

- oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi darajasi pasayishining oldini olish va yanada rivojlantirish choralarini izlash;
- barcha tashkiliy-huquqiy shakldagi tashkilotlar uchun hududiy oziq-ovqat bozorlariga kirish hamda teng raqobat muhitini ta'minlash.

Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda importning ulushini kamaytirish yoki import qilmasdan mamlakatda sifatlari va jahon standartlariga javob beradigan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaradigan korxonalar sonini ko`paytirish yoki mayjud korxonalarda innovatsiya loyihamini amalga oshirishni talab qilinadi. Innovatsiya loyihamini amalga oshirish natijasida sifatlari mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etgan korxonalarga soliq imtiyozlari qo'llanib, undan iqtisod qilingan mablag'lar korxonani rivojlantirishga yo'naltirish ham yaxshi samara beradi. Samarali oziq-ovqat nazorati tizimini joriy etishning afzallikkari qiyinchiliklardan ustun turadi, chunki ular iste'molchilar salomatligini himoya qiladi, sanoatga ishonchni oshiradi va jamiyatning umumiy farovonligiga hissa qo'shadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasini ko`radigan bo`lsak, Germaniya tajribasiga ko'ra, oziq-ovqat sanoati mamlakatda 5 milliondan ortiq ish o'rni yaratgan, kichik va o'rta korxonalar muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda ham bu sanoatni rivojlantirish orqali bandlik darajasini oshirish mumkin. Yaponiya oziq-ovqat ishlab chiqarish jarayonida zamонавиу texnologiyalardan foydalangan holda energiya sarfini kamaytirishga erishgan. AQSh oziq-ovqat sanoatiga katta sarmoya kiritib, maxsus sovutish tizimlariga ega logistika markazlarini yaratdi. Bu mahsulotlarning uzoq masofaga tez va sifatlari yetkazib berilishini ta'minladi. Texnologiya va barqarorlik oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, tarqatish va iste'mol qilish landshaftini qayta shakllantiradigan egizak ustun ekanligi ayon bo'ladi. Sun'iy intellekt, blokcheyn va IoT ilovalari kabi ilg'or texnologiyalarning integratsiyasi samaradorlik, shaffoflik va innovatsiyalar tomon siljishni ta'kidlaydi. Ushbu yutuqlar nafaqat sanoatdagi jarayonlarni optimallashtiradi, balki iste'molchilarga oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish va ishlab chiqarish bo'yicha izlayotgan ma'lumotlar bilan ham imkon beradi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, oziq-ovqat sanoati mamlakatimizda eng muhim tarmoqlardan biri hisoblanadi. Kelajakda O'zbekistonda oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish uchun xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, ilmiy-tadqiqot loyihamini kengaytirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Oziq-ovqat sanoatini rivojlanishiga ijobjiy ta'sir etadigan omillar sirasiga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiq sanaladi:

- jahon oziq-ovqat mahsulotlari bozorida milliy bozor ulushini oshirish;

- oziq-ovqat sanoat infratuzilmasida logistika tizimlarini rivojlantirish;
- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish
- zamonaviy tehnikalarni jalb qilish orqali oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni sifatini oshirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Маршалл А. Принципы экономической науки: в 3 т. Т. 1. М.: Прогресс, 1993. С. 348-359.
2. Uzbekistan Ministry of Agriculture. (2022). *O'zbekistonda oziq-ovqat sanoati va infratuzilmga rivojlanishi bo'yicha davlat dasturi*. Toshkent: Qishloq xo'jaligi vazirligi.
3. United States Department of Agriculture (USDA). (2019). *Agricultural Policies and Food Industry Growth in the USA*. Washington, D.C.: USDA.
4. Yamamoto, H. (2018). *The Role of Food Production in Japan's Economic Growth*. Tokyo: Japan Economic Review.
5. Internet saytlari:
www.google.com
www.yandex.com
www.inlibrary.uz
www.ziyonet.uz